

**YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI**

Andijon Qishloq Xo'jaligi va

Agratexnologiyalari Instituti Agrobiznes fakulteti

Gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Muzaffarov Ikromjon Nodirbek o'g'li**

Andijon Qishloq xo'jaligi va Agrotexnologiyalari Instituti

Agrobiznes va raqamli iqtisodiyot fakultati

Yurisprudensiya yo'nalishi

**Usmonova Hojiniso Ilxomjon qizi**

[sherhojizs@gmail.com](mailto:sherhojizs@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yoshlarga oid davlat siyosati, uning ustuvor maqsadlari, yoshlarining hayotida tutgan o'rni va ahamiyati berilgan.

**Kalit so'zar:** Yoshlar siyosati, rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash, imkoniyatlar, intellektual rivojlanish, strategik yo'nalish, tarbiya,

Yoshlarga oid davlat siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategik yo'nalishdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston yoshlari forumida ta'kidlab o'tgandek, “ Biz yurtimizda qanday islohatlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu-shijoatingizga suyanamiz”.

Mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi qonuni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan,

shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi.


O'zbekiston mustaqillik yillarida yoshlarga oid davlat siyosatini innovatsion rivojlanish, ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya va sportga yo'naltirgan. Ushbu siyosatning asosiy maqsadi jamiyatda faol, bilimli va sog'lom yosh avlodni shakllantirish hamda ularning salohiyatini mamlakatning barqaror rivojlanishiga yo'naltirishdir. Natijada yoshlar ta'lim va kasbiy faoliyatda, ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etib, jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'shmoqda.

Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar doirasida ta'lim tizimida, chet tillarini o'rganish rag'batlantirildi va ilm-fan sohasida yoshlarga imtiyozlar yaratildi. Ularning bandligini ta'minlanib, zamonaviy kasblarga tayyorlash uchun ish o'rinlari yaratilgan va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yildi.

2025 yilda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid siyosat yangi bosqichga ko'tarildi<sup>1</sup>. Davlat tomonidan ko'rilayotgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar natijasida yoshlarning jamiyatdagi o'rnı kuchayib, ularning bilim, salohiyat va tashabbuslari amaliy natijalar bermoqda. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimiz kelajagiga mustahkam zamin yaratmoqda Yangi tashabbuslar, qonunchilikdagi o'zgarishlar va amaliy loyihalar orqali yoshlarning jamiyatdagi faolligi, bilim va salohiyatini ro'yobga chiqarish bo'yicha muhim qadamlar qo'yildi.

Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik,

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/-5234746>



qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish, yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish. Yoshlarga oid davlat siyosati davlat dasturlari, hududiy va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilishi mumkin.

Davlat dasturlari, hududiy va boshqa dasturlar yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, yosh fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan zarur shart-sharoitlarni yaratish, jamiyat hayotida ularning o'rni va faolligini oshirish, sog'lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalash maqsadida ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga <sup>2</sup> hamda qonunga muvofiq har bir yosh fuqaroning huquqlari va erkinliklari kafolatlanadi. Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish kafolatlari, bepul tibbiy xizmat ko'rsatilishi, bepul umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim olish, davlat ta'lim muassasalarida davlat grantlari doirasida bepul kasb-hunar va oliy ta'lim olish, davlat sport-sog'lomlashtirish va

---

<sup>2</sup> (<https://lex.uz/docs/6445145>)

madaniy-ma'rifiy muassasalariga borish uchun shart-sharoitlar yaratish. Ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'lmagan yosh fuqarolarni ishga joylashtirishga yordam qo'shimcha ish o'rinlari va ixtisoslashtirilgan korxonalarini barpo etish, o'qitish bo'yicha maxsus dasturlarni tashkil etish, shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan yoshlarni ishga joylashtirish uchun korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda ish joylarining eng kam miqdori zaxirasini yaratish yo'li bilan ta'minlanadi. Iqtidorli va iste'dodli yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash Yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.

Yoshlar ijtimoiy xizmati faoliyatining yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Yosh fuqarolarga psixologik-pedagogik, yuridik yordam ko'rsatish va maslahatlar berish, imkoniyati cheklangan yosh fuqarolarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, yosh oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, ta'lim va mehnat jamoalarida yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish<sup>3</sup>. Yoshlarga oid davlat siyosati doirasida yoshlarga bundan tashqari xotin-qizlar o'qishi uchun tavsiyanoma, grant va imtiyozlar, yoshlar tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab quvvatlash uchun grantlar, "Yoshlar daftari" va unga kiritilgan yoshlarni qo'llab -quvvatlash kabi ko'plab imkoniyatlar yaratildi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi" qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlari forumidagi ma'ruzasi

<sup>3</sup> (<https://www.lex.uz/ru/docs/3026246#5616747>)